



Search in preliminary investigation: concept, basics and tasks

Saidmukhammad IBODULLAYEV¹

Samarkand State University named after Sharaf Rashidov

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2023

Received in revised form

15 November 2023

Accepted 25 November 2023

Available online

15 January 2024

Keywords:

crime,
criminal process,
investigation,
investigator,
criminal investigation,
search,
seizure.

ABSTRACT

This article, referring to Articles 157 and 158 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, discusses the process of seizing things and documents important for the case through a search. It is argued that the investigator must have sufficient grounds to conduct a search. However, since search and seizure are measures that limit the constitutional rights and freedoms of an individual, it is emphasized that law enforcement officials, especially criminal investigation officers, must strictly follow legal requirements.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss10/S-pp62-67>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Dastlabki tergovda tintuv tushunchasi, asoslari va vazifalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

jinoyat,
jinoyat protsessi,
tergov,
tergovchi,
surishtiruvchi,
jinoyat qidiruv,
tintuv,
olib qo'yish.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi JPKning 157, 158-moddalarida ta'kidlanganidek, ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa va hujjatlarni tintuv qilish yo'li bilan olib qo'yish harakatlarining tushunchasi, o'tkazish uchun tergovchi yetarli asoslarga ega bo'lishi kerakligi, tintuv va olib qo'yish shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq harakat bo'lganligi uchun huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (ayniqsa jinoyat-qidiruv xodimlari) qonun talablari asosida harakat qilishlari kerakligi haqida fikr yuritilgan.

¹ Student, Faculty of Law, Samarkand State University named after Sharaf Rashidov. E-mail: Saidibodullayev@gmail.com

Обыск на предварительном следствии: концепция, основы и задачи

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

преступление,
уголовный процесс,
расследование,
следователь,
уголовное расследование,
обыск,
выемка.

В данной статье, ссылаясь на статьи 157 и 158 Уголовного кодекса Республики Узбекистан, обсуждается процесс изъятия вещей и документов важных для дела через обыск. Утверждается, что следователь должен иметь достаточные основания для проведения обыска. Однако, поскольку обыск и изъятие являются мерами, ограничивающими конституционные права и свободы человека, подчеркивается, что сотрудники правоохранительных органов, особенно уголовного розыска, должны строго следовать законодательным требованиям.

Ko'plab mualliflar tomonidan berilgan tintuvning tergov harakati sifatidagi ta'riflari umumiy mohiyatga ega bo'lsa-da, ularda farqli jihatlarni kuzatish mumkin. 1961-yilda A.R. Ratinov tomonidan berilgan ta'rif umume'tirof etilgan bo'lib, unga ko'ra, tintuv mohiyati bu yashiringan shaxslarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli narsalarni topish va olib qo'yish maqsadida turar-joylar, binolar, yer maydonlari va alohida shaxslarni majburiy kuzatishdan iborat bo'lgan tergov harakatidir [1].

R.S. Belkin esa tintuv tushunchasiga boshqacha yondashgan. Uning fikriga ko'ra, tintuv ish bo'yicha haqiqatni o'rnatish uchun ahamiyatli bo'lgan ob'yektlarni, jinoyat qurollarini, jinoiy yo'l bilan topilgan boyliklarni, shuningdek, ish uchun ahamiyatli boshqa narsa va hujjatlarni topishdan iborat bo'lgan tergov harakatidir. U yashiringan shaxslar va murdalarni topish uchun ham o'tkazilishi mumkin.

Ayrim manbalarda yuqorida keltirilgan ikki ta'rifning uyg'unlashgan mazmundagi izohlarini ham kuzatishimiz mumkin. Misol uchun V.A. Obratsov va I.F. Panteleyevlar "Tintuv – jinoyat qurollari, jinoiy yo'l bilan topilgan boyliklar, shuningdek, tergov qilinayotgan jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa narsa va hujjatlarni topish va olish maqsadida turar joylarni, binolar va boshqa ob'yektlarni, shuningdek alohida fuqarolarni majburiy tekshirishda ifodalanadigan tergov harakatidir", degan ta'rifni berganlar.

Shaxsni tintuv qilishda uning buyumlari (sumka, jomadonlari) va kiyimlari ham nazarda tutilganligi bois, yuqorida keltirilgan tintuv qilinadigan ob'yektlar doirasini kengaytirilgan hollarini kuzatish mumkin.

Bu holat A.A. Zakatov va S.G. Lyubimchev tomonidan berilgan quyidagi ta'rifda o'z ifodasini topgan: "Tintuv – ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarni, shuningdek yashiringan shaxslar va murdalarni topish va olish maqsadida turar joylarni, yer maydonlari, transport vositalarini, fuqarolar yoki ularning kiyimlarini majburiy tartibda tekshirishdan iborat bo'ladigan tergov harakatidir".

Bir qarashda yuqorida keltirilgan ta'riflar tintuv tergov harakatining asosiy belgilarini yoritib berganga o'xshasa-da, qidiriladigan ob'yektlarning doirasini yetarlicha ko'rsatib bermagan. Tergov amaliyotida ko'p hollarda tintuv tergov harakati narkotik moddalarni topish maqsadida ham o'tkaziladi. Bunday moddalarni topish va olib qo'yish ushlash vaqtida shaxsiy tintuv, turar – joy va hududlarda tintuv o'tkazish bilan amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan ta'riflar, shuningdek narkotik moddalarni topish jihatlaridan kelib chiqib tintuvga quyidagicha mualliflik ta'rifini berish mumkin.

Tintuv – mazmuni daliliy va yo'naltiruvchi ma'lumotlar manbalarini (jinoyat qurollari, jinoyat puli bilan topilgan yoki ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar, qimmatli va boshqa ashyolarni), shuningdek qidirilayotgan shaxslar va murdalarni yoki ularning qayerda qoplashganligi haqidagi ma'lumotlarni topish va olish maqsadida turar-joylar, yer maydonlari, muayyan shaxslar va ularning narsa va buyumlarini majburiy tekshirishdan iborat bo'lgan tergov harakatidir.

Tintuv jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin o'tkaziladigan tergov harakati hisoblanadi.

O'zR JPKning 329-moddasida "Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol yoki uch sutkadan kechiktirmasdan, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoki surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda, o'n sutkadan kechiktirmasdan ko'rib chiqilishi lozim. Ushbu muddatlar jinoyatga oid xabar olingan paytdan boshlab to ishni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarilgunga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Ko'rsatilgan muddatlar ichida qo'shimcha hujjatlar, izohlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va ekspertiza o'tkazish mumkin. Ish qo'zg'atilgunga qadar boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinadi", deyilgan. Shunga ko'ra, tintuv tergov harakati faqat qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha o'tkazilishi kerak.

O'zR JPKning 162-moddasiga ko'ra, kechiktirib bo'lmaydigan ya'ni shaxsiy tintuv va olib qo'yish quyidagi hollarda alohida qaror yoki ajrim chiqarilmasdan o'tkazilish holatlari orasida:

- jamoat tartibini saqlashga doir burchini bajarayotgan militsiya xodimi tomonidan gumon qilinuvchini ushlash chog'ida ushlanuvchining yonida qurol borligiga yoxud jinoyat sodir etganligini fosh qiladigan dalillardan qutulmoqchi ekanligiga yetarli asoslar bo'lgan (JPKning 224-moddasi);

- gumon qilinuvchi militsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinib, uni ushlab turish haqida JPKning 225-moddasiga asosan bayonnoma tuzilgan holatlari keltirilgan.

Mazkur holatlar tergov amaliyotida ko'pincha jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar vujudga keladi. Agar O'zR JPKning 329-moddasining talablarini buzmaslik uchun mazkur tergov harakatini o'tkazishdan oldin jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lishi talab qilinadi. Qonundagi bu kabi qoidalarining bir-biriga zidligi tergov faoliyatini qiyinlashtiradi yoki aksincha mazkur tergov harakati jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar kechiktirib bo'lmaydigan hollarda o'tkazilganda jinoyat-protsessual qonunchiligi (aniqrog'i 329-modda) talablarni jiddiy buzilishiga olib keladi.

Mazkur muammoning yechimi O'zR JPJning 329-moddasiga jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar o'tkazilishi mumkin bo'lgan protsessual harakatlari doirasiga shaxsiy tintuvni kiritish bilan erishiladi. O'zR JPKning 329-moddasi ikkinchi qismi "Ko'rsatilgan muddatlar ichida qo'shimcha hujjatlar, izohlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, ushlangan shaxsni shaxsiy tintuv qilish mumkin. Ish qo'zg'atilgunga qadar boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinadi" degan tahrirda o'zgartirish kerak.

Tintuv qidirish bilan bog'liq tushuncha bo'lganligi sababli tergovchi shaxs yashirgan jinoyat qurollarini, jinoiy yo'llar bilan orttirilgan boyliklarni topish bilan birga quyidagi vazifalarga ham ega:

- jinoyat qurollarini va uni sodir etish uchun maxsus tayyorlangan jinoyat vositalarini (qurol, ochqichlar, portlovchi moddalar, qalbaki muhrlar va h.k.) yoki shu maqsadlarda ishlatilgan boshqa uskunalarni (pichoq, bolta, bolg'a, qalbaki pullar, ximiyaviy moddalarni) qidirib topish;

- jinoiy yo'l bilan orttirilgan boyliklarni, xususan, jinoyatchi tomonidan bevosita o'g'irlangan buyumlar, tovlamachilik va boshqa jinoiy yo'llar bilan orttirilgan narsalarni topish va olib qo'yish;

- ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa narsalar va hujjatlarni topish. Bular jinoyat sodir etilganligini tasdiqlovchi, shuningdek muayyan joyda jinoyat sodir etgan shaxs yoki narsalar yashirilgan deb hisoblashga asoslar bo'lsa, ya'ni foto sur'atlar, video va audio yozuvlarda ular aks ettirilgan bo'lsa;

- qidiruvdagi shaxslarni va murdalarni topish. Bu tergovdan va suddan qochib yurgan shaxsni bevosita aniqlab topish bo'lsa, ikkinchi tomondan uni qayerdaligini ko'rsatib turuvchi shaxsiy yozishmalari, hujjatlarini topishdan iborat. Turar joylarda, ularning atrofida, yerto'lalarda, omborlarda, transport vositalarida murdani va uning bo'laklarini topish maqsadida;

- fuqaroviy da'voni ta'minlash uchun va musodara qilinishi kerak bo'lgan mol-mulkni topish maqsadida. Bunda tergovchi ayblanuvchi, gumonlanuvchi yoki o'zi sodir etgan harakatlari yuzasidan moddiy javobgar bo'lgan shaxsni, shuningdek jinoiy yo'llar bilan topilgan mol- mulklarni boshqa shaxslarda topish mumkin bo'lgan hollarda;

Tintuv jarayonida ishga taaluqliligidan qat'i nazar, ishlatilishi taqiqlangan narsa va hujjatlar ham olib qo'yilishi kerak: o'q otar qurollar, narkotik vositalari, radioaktiv moddalar, davlat sirlari bilan bog'liq hujjatlar va h.k.

Tintuv dastlabki va sud tergovlarida har qanday paytda ham o'tkazilishi mumkin. Jumladan, jinoiy uyushmalarni tergov qilishda ko'pincha jinoyat ishi qo'zg'atilganidan boshlab amalga oshiriladi. Bu harakat o'z navbatida jinoiy tajovuz predmeti hisoblanmish jinoiy yo'l bilan topilgan boyliklarni, jinoyat sodir etish qurollarini, o'q otar qurollarini, transport vositalarini shuningdek yashiringan jinoyatchini topish maqsadida ham amalga oshiriladi.

Surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar bor, deb hisoblash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda tintuv o'tkazishga haqliligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi JPKning 158-moddasida o'z aksini topgan.

Tintuv o'tkazish ko'pincha turar joy yoki boshqa joylarga majburiy tartibda kirishni nazarda tutadi, ya'ni bu o'z navbatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklashga olib keladi. Tintuv har doim to'liq asoslangan, yetarli ma'lumotlarga tayangan holda o'tkazilishi darkordir, bu haqda qonunda ham "yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda" deyilgan (O'z.R.JPKning 158-moddasi 1-qism).

Yetarli ma'lumot deyilganda, qonun, tintuv o'tkazish uchun asoslangan ma'lumot tergovchida shubha uyg'otmasligi kerakligi haqida ta'kidlab o'tadi. Bunday ma'lumotlar tergov yoki operativ harakatlari natijasida turli manbalardan olingan bo'lishi mumkin. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- guvoh, jabrlanuvchi, gumonlanuvchi, ayblanuvchilarning ko'rsatmalari;
- fuqarolarning ariza va shikoyatlari;

– davlat, jamoat va korxona – tashkilotlar mansabdor shaxslarining rasmiy bildirgilari asosida;

– tergov faoliyati va usullari yordamida to'plangan ma'lumotlar yig'indisi asosida; ulardan eng maqbul bo'lgani, kim, nimani, qayerda yashirgani to'g'risida ishonarli va yetarli asoslarga ega bo'lgan ma'lumotlar hisoblanadi. Tintuv qidirilayotgan shaxsni, shuningdek murdani topish uchun ham o'tkazilishi mumkin [2].

Operativ-qidiruv ma'lumotlar protsessual qaror qabul qilishga asos bo'la olmaydi, ular faqatgina qidiruvga ma'lum bir yo'nalish berishi mumkin.

Noprotsessual manbalardan olingan ma'lumotlar (operativ qidiruv ma'lumotlari) ish materiallari bilan qiyoslanganda, ularga mos kelgan taqdirdagina tintuv o'tkazish to'g'risida asoslantirilgan qaror chiqarishda hisobga olinishi mumkin [3].

Jinoyat ishi bo'yicha ahamiyatli bo'lgan jinoyat qurollari, jinoiy yo'l bilan topilgan narsa va hujjatlar, muayyan shaxsda yoki joyda qimmatbaho buyumlar saqlanishi ma'lum bo'lsa yoki bu haqda gumon paydo bo'lsa, bu tintuvni amalga oshirishga asos bo'la oladi.

Tintuv asosan ish bo'yicha daliliy ahamiyatga ega bo'lgan predmetlarni, hujjatlarni aniqlash (topish) va olish; qidiruvda bo'lgan shaxslarni topib, ularni qo'lga olish yoki shu shaxslarning qayerda yashirilib yurishini ko'rsatuvchi materiallarni aniqlab topish va olish; ish ahamiyatli bo'lgan moddiy mablag'larni (pullar, qimmatbaho narsalar, qimmatbaho metallar va toshlarni) aniqlab, topish va olish; kelajakda musodarani ta'minlovchi yoki jinoyatdan ko'rilgan zararni qoplovchi mulkni topish va uni hatlab qo'yish maqsadida o'tkaziladi.

Tintuv o'tkazish uchun, qidirilayotgan ob'yektning aniq saqlanayotgan joyni bilishni talab qilmaydi va bu holat uni olib qo'yish bilan bog'lik protsessual harakatdan ajratadi.

Tintuv o'tkazishdan hamda u haqda qaror qabul qilishdan avval ish bo'yicha yig'ilgan faktik ma'lumotlar baholanishi va tahlil etilishi lozim. Tintuv, murdani qidirishda ham o'tkazilishi mumkin.

Tintuv o'tkazish uchun surishtiruvchi, tergovchi tintuv to'g'risida qaror chiqaradi va bu qarorda prokuror o'z ruxsatini qayd etadi yoki prokuror o'rinbosari uning o'rniga ruxsat berishi mumkin.

Tintuv kechiktirib bo'lmas tergov harakati bo'lib, jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng, tegishli tergov holatini taqozo etadigan bo'lsa, jinoyat ishining har qanday jarayonida o'tkazilishi mumkin. Chunki jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan daliliy ashyolarning o'z ahamiyatini yo'qotishi, aynishi, o'z shaklini o'zgartirishi va boshqa shunga o'xshash holatlar kuzatilishi mumkin.

Tintuv bilan olib qo'yish harakati bir-biriga o'xshab ketsa-da, qator farqli tomonlari ham mavjud, jumladan: tintuv turli narsalarni qidirishni taqozo etsa, olib qo'yishda bu narsalar shaxs tomonidan ixtiyoriy ravishda taqdim etiladi va "qidiruv" o'tkazilmaydi. "Qidiruv" jinoyat ishiga taalluqli narsa yoki hujjatning topish va olish tushunchasi hisoblanadi. Agar narsa yoki hujjat shaxs tomonidan ixtiyoriy ravishda huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etilmasa yoki shaxs uni taqdim etishdan bosh tortsa, "qidirishga"ga ehtiyoj tug'iladi. Bundan tashqari tintuv va olib qo'yish fuqarolar tomonidan bir xilda tushunilmaydi, chunki fuqarolarni tintuv ko'proq tashvishga soladi, olib qo'yish esa, agar u ixtiyoriy ravishda sodir etilgan bo'lsa, protsessual majburlov choralari qatoriga kirmaydi. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida tintuv va olib qo'yishni bir- biridan farqlash kerak [4].

Bir soʻz bilan izohlaydigan boʻlsak, tintuvning ham, olib qoʻyishning ham asosiy maqsadlaridan biri – jinoyat ishi boʻyicha dalillar toʻplashdir. Tintuvni oʻtkazishda quyidagi masalalarga eʼtibor berish lozim:

- jinoyat ishi uchun, daliliy ahamiyatga ega boʻlgan narsalarni toppish;
- jinoyat sodir etish quroli va vositalari (oʻq otar qurollar, pichoq, bolta, ochqich va h.k.);
- jinoiy harakatlarning obʼyektlari (oʻgʻirlangan mulk, pul va boshqa qimmatliklar);
- jinoyat izlarini oʻzida saqlagan narsalar yoki uni yashirish uchun ishlangan moslamalar (qon dogʻlarini oʻzida aks ettirgan kiyimlar, maxfiy berkitish uchun moʻljallangan joylari va h.k.);
- izlanayotgan shaxslarning murdalari;
- jinoyat yoʻli bilan orttirilgan mulk, pullar va boshqa qimmatliklar;
- boshqa jinoyat ishiga ahamiyatli boʻlgan narsa va hujjatlar (xatlar, turli yozuvlar, fotosuratlar va boshqalar);
- qidirilayotgan shaxslar, dezertirlarni, ularni izlashni osonlashtiradigan va tavsiflaydigan materiallarni topish;
- keltirilgan moddiy zararni qoplash yoki musodara qilish uchun shaxsga taalluqli boʻlgan mulkni qidirish. Bunda faqat mulk emas, uning qayerda ekanligiga ishora qiluvchi materiallar, qarindosh yoki tanishlari bilan oʻzaro yozishmalar, turli kvitansiyalar va shaxsda shu mulkning borligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar (tovar yorliqlari, pasportlar, qidirilayotgan narsalarning qismlari va boshqalar) qidiriladi;
- bundan tashqari tintuvda, ishlatilishi taʼqiqlangan (qurol-yaroq, oʻq-dorilar, portlovchi moddalar, zaharli moddalar. narkotiklar. pornomateriallar, qoʻlda tayyorlangan spirtli ichimliklar va uni tayyorlovchi asboblari, quyma oltin, platina, kumush va boshqalar) olib qoʻyiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 157, 158-moddalarida taʼkidlanganidek, ish uchun ahamiyatli boʻlgan narsa va hujjatlarni tintuv qilishga va olib qoʻyishni harakatlarini oʻtkazish uchun tergovchi yetarli asoslarga ega boʻlishi kerak. Tintuv va olib qoʻyish shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bogʻliq harakat boʻlganligi uchun huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (ayniqsa jinoyat-qidiruv xodimlari) qonun talablari asosida harakat qilishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Toshkent. 1994 y.
2. Криминалистика. Краткая энциклопедия. Автор составитель Р.С.Белкин. - М.: Научное изд-во "Большая Российская Энциклопедия", 1993. с.47.
3. Рижиков А.П. Следственные действия Москва 1997. с. 38
4. Kriminalistika. Darslik. R.Belkinning mas'ul muharrirligi ostida. -M.: Norma, 2000. b.64.
5. Шадрин В. А, «Обеспечение прав личности в расследований преступлений» – М. 1999. б. 142.
6. Московская Ю.А. "Охрана прав и законных интересов личности" Ярослав., 1984.